


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori G. Abduraxmanova



« \_\_\_\_\_ » 2026 y.

**09.00.04 – “IJTIMOIY FALSAFA”**

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

**D A S T U R I**

**Toshkent – 2026**

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2026 yil “26” 08  
dagi Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Faslafa” kafedrasining 2026 yil «27»  
avgustdagi « 1 » - son yig‘ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

  
**Kafedra mudiri** \_\_\_\_\_ **f.f.d., prof. Muxtarov A.**

**Tuzuvchilar:** f.f.d., prof. I.Saifnazarov,  
c.f.d.(PhD), dotsent D.Ernazarov

**Taqrizchi:** f.f.d., prof. Sh.Madaeva.

## KIRISH

Mazkur tayanch doktorantura (PhD) uchun «Falsafa» kursi bo'yicha dastur Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida tayyorlandi.

“Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rin tutadi.

Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rta tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz<sup>1</sup>.

Falsafa fanining asosiy masalasi inson va uning olamga, jamiyatga va inson tafakkuriga bo'lgan qarashlarni shakllantirishdir.

Tadqiqotchilar falsafiy dunyoqarash, inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyati, moddiy borliq va ijtimoiy hayot o'rtasidagi o'zaro qonuniyatlar to'g'risida; falsafiy bilimlarning shakllanishi, tarkibiy tuzilishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari; hozirgi dunyoning ilmiy, falsafiy, diniy manzarasi; falsafaning asosiy yo'nalishlari va maktablari; monistik va plyuralistik falsafiy konsepsiyalar; hozirgi dunyoning globallashuv jarayoni, insoniyatning ekologik va boshqa global muammolari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 11.09.2023 yildagi PQ-300-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorining ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini hamda omillari, istiqlool o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani – bularning barchasini har taraflama chuqur yoritib va isbotlab berishga qaratilgan ilmiy izlanish, tahlillar bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganini; Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Vatan va jahon madaniyati, falsafasi fanining rivojlanishidagi hissasi, o'rnini; borliq konsepsiyasining mazmuni, uning o'z-o'zini tashkil etishi, moddiylik va ma'naviylik tushunchasi, uning mohiyati va qonuniyatlarini; ijtimoiy falsafa: jamiyat va uning tarkibiy tuzilishi, davlat, demokratiya, fuqarolik jamiyati tushunchalarining mohiyati; ijtimoiy taraqqiyotning bosqichlari va sivilizatsiya konsepsiyalarini; ijtimoiy munosabatlar tizimida inson mohiyati; ong va o'z-o'zini anglash ta'limoti; aksiologiya; axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini; dialektika, sinergetika, harakat va rivojlanish, makon va zamon

---

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда”. Янги Ўзбекистон газетасига интервью. 2021 йил, 17 август.

haqidagi ta'limotlarni; tabiiy, gumanitar va boshqa fanlarni o'rganishda umumfalsafiy uslub va tamoyillarni; bilishning umumfalsafiy metodlarini bugungi kunda tadqiqotchilar bilishi kerak.

Falsafaning qonun va kategoriyalari, tamoyillarini:

- dunyoqarash va umummetodologik falsafiy prinsiplarni;

- tanqidiy tafakkurni amaliy faoliyatida va ilmiy tadqiqotlarga qo'llash *ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.*

## **DASTUR MAVZULARI**

### **Falsafa, uning predmeti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni**

Falsafa ijtimoiy fan sifatida. «Falsafa», «faylasuf» tushunchalarining tarixi va zamonaviy talqini. Falsafa dunyoqarash sifatida. Uning dunyoqarashning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liqligi. Nazariya va amaliyot birligi-falsafiy dunyoqarash asosi sifatida. Falsafiy dunyoqarashning umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarni o'rganishdagi ahamiyati. O'zbekistonda hozirgi bosqichda yangicha falsafiy tafakkurning shakllanishi va barkamol shaxsni tarbiyalash vazifalari. Falsafaning metodologik, dunyoqarash, bilish vazifalari. Ularning dunyoning qurilishi va bunda odamning o'rni haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi, insonning olam bilan amaliy aloqadorligi tamoyillarini ishlab chiqarishdagi roli. Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Jahon falsafasi tizimida milliy falsafaning o'rni. Falsafani o'zlashtirishda milliy g'oyaning roli.

### **Ilmiy an'analar va ularni yangilash jarayoni**

Ilmiy tadqiqotning asosiy muammolari: olam, tabiat, hayot, inson, jamiyat, ularning metodologik muammolari. Ilmiy maktablar va an'analar, ilmiy bilimlar rivojida o'rni. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi, ustoz va shogird muammosi, ilmiy maktablar masalasi fanda avlodlar almashuvi, yangilanish va qadriyat jarayonlari. Ilmiy paradigma tushunchasi. Fanda o'z nomini topish.

Fandagi yangilik, ilmiy kashfiyotlar, ahamiyati va xilma xilligi. Yangi taxminlar va ularning ilmiy taraqqiyotdagi ahamiyati. Tadqiqotning yangi usullari va fanning takomillashuvi. Yangi metodologik g'oyalar va ilmiy mushohadaning o'zgarishi.

### **Fan mantiq'i va ilmiy bilim muammosi**

Tilning formallashuvi va ilmiy ijodda tafakkur mantiqiy shakllarining qo'llanilishi. Formallashtirish tafakkur natijalarining aniq tushuncha yoki xulosalarda aks etishi sifatida. Formallashtirish belgilar formalizmidagi yoki formallashgan tildagi bilim mazmuni aksi sifatida. Uning ilmiy ijoddagi roli. Formal va dialektik logika.

Tabiiy va sun'iy til. Formallashgan tilning ilmiy tushunchalarni tahlil qilish, aniqlashtirish va qo'llashdagi roli. Ilmiy tadqiqot faoliyatda formal metodlardan

foydalanish. Fanni ta'riflash va tasniflashda tilning roli. Taqqoslash ilmiy bilimni ifoda etishning mantiqiy shakli sifatida. Xulosalar turli xillarining yangi bilim hosil qilishdagi ahamiyati. Semiotika va semantika. Til mantiqiy qonunlarining ijodiy izlanishlarda qo'llanishi fan tilining asosiy xususiyatlari: aniqlik, izchillik, isbotlash, ilmiy ijodda ayniyat, nozidlik, uchinchi mustasno va yetarli asos qonunlarining qo'llanilishi. Ilmiy tadqiqotning ilmiy bilish usullarini ortiqcha formallashtirish imkoniyatini istisno qilish.

Formallashtirishning axborot va kompyuter texnologiyalaridagi o'rni.

### **Fanning metodologik tahlili**

Fanning falsafiy masalalari va fanshunoslik. Falsafa dunyo ilmiy manzarasining nazariy va metodologik asosi sifatida. G.Gelmgols, T.Geksli, V.Vernadskiylarning fan taraqqiyotiga falsafiy, sotsial va psixologik omillarning ta'sirini ochishdagi roli.

Hozirgi sharoitda falsafa, metodologiya va xususiy fanlar o'zaro munosabatining umumiy muammolari. Falsafa va xususiy ilmiy bilimlar aloqadorligining juz'iy muammolari.

Metodologiya tushunchasi va fanning metodologik tahlili. Falsafiy metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va tuzish usullari hamda tamoyillari tizimi, shu bilan birga ushbu tizim haqidagi ta'limot sifatida.

Falsafa, metodologiya va fanning o'zaro munosabati. Falsafaning ilmiy bilimga nisbatan metodologik vazifasining o'ziga xosligi muammosi. Ssientizm va antissientizm.

Ilmiy bilimni falsafiy tahlil qilish zaruriyati. Pozitivistik ta'limotlar. Falsafani muayyan nazariy bilim shakli sifatida inkor etish, umum falsafiy metodologik qurilmalarni pozitivistik xususiy-ilmiy mushohada usullari bilan almashtirishning asossizligi.

### **Bilimlar tizimida ilmiy bilimning o'rni. Ijod va ilmiy tadqiqot**

Bilim tushunchasi: ilmiy, noilmiy, ilmiylikkacha, parailmiy. Bilimning epistemologik (bilim) talqini: chinligi, ishonchliligi, asoslanganligi, kvaziilmiylik. Aksililmiy bilimlarning ta'rifi va uning o'rni.

Ilmiy bilim tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari: ob'ektivlik, ijtimoiylik, normativlik. Jamiyat taraqqiyotida ilmiy bilimning o'rni.

Ilmiy bilimning darajalari: hissiy, empirik, nazariy, metanazariy. Ularning predmeti, ob'ekti, metodlari, sifat jihatdan farqlari va vazifalari.

Bilimning asosiy shakllari: hayotiy, ilmiy, ilm darajasidan tashqari bilimlar, ekzoterik, ezoterik. Ilmiy bilimning funksionallashuv konsepsiyasi: empirik bilim va uning shakllari: kuzatish, eksperiment, dalil. Metanazariy bilim. Intuitiv (haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyati) bilim darajasi. Intuitiv bilimning ilmiy tadqiqot faoliyatidagi roli. Intellektual intuitsiya haqidagi ta'limot. XX asr boshida har xil maktablar: Gusserlning fenomenologik intuitsiyasi,

Bergsonning intuitivizmi. Freydning ong osti intuitsiyasi. Intuitsiyaning ilmiy tadqiqot jarayoniga ta'siri.

Sinergetika (grek. birgalikda ta'sir qilish, ishtirok etish) – ilmiy bilish metodi sifatida. Sinergetik tafakkurning mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy sinergetik jarayonlar. Prezident Shavkat Mirziyoevning dunyoni tushunish sifatida sinergetik tafakkur asosida qo'shni, qardosh davlatlar bilan bo'lgan munosabatda yangicha yondashuvi, hamkorlik va birdamlikni rivojlantirishi.

Ijod – yangi qadriyatlarni yaratish omili, ilmiy ijodning evristik xarakteri. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijodga oid qarashlari. Bilish faoliyatida ijod va mehnat uyg'unligi. Ijodning amal qilish va o'ziga xos xususiyatlari. Ijod shakllari va metodlarining turli-tumanligi. Ijodiy tafakkur bosqichlari: tayyorgarlik, inkubatsiya, oydinlashuv, tasdiqlash. Yangi bilimlarning eski bilimlar bilan bog'liqligi. Ijodga zid xususiyatlar: dogmatizm, noxolislik, dunyoqarash torligi. Ijod – yangilik yaratish bo'yicha konstruktiv faoliyat. Ijodning asosiy shakllari: badiiy, ilmiy, texnik. Ijod yangi qadriyatlarni yaratish omili. Ijodkorning ilhom manbai. Daholikning o'ziga xos xususiyatlari. Ijodning dual xarakteri. Erkinlik ijodning asosiy xossasi. Ilmiy tadqiqot oldiga qo'yilgan talablar. Ilmiy ijodiy faoliyatda olimning shaxsiy fazilatlari.

### **Fan – ijtimoiy madaniy hodisa**

Fan tushunchasi. Fanning bilim, faoliyat, ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi. Fanning tarixi va mohiyatiga oid yondashuvlar: prezentizm va antikvarizm, eksternalizm va internalizm, ssientizm va antissientizm kabi yondashuvlar tahlili. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Fan – ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida, bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan tarixiy taraqqiyotining asosiy modellari.

Fanning asosiy funksiyalari: ilmiy bilim yaratish, ijtimoiy kuch, loyiha-konstruktsiyalash, madaniy-texnologik, ijtimoiy tartibga solish, bunyodkor kuch, siyosat vositasi, haqiqiy bilimni yaratish funksiyasi kabi funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Fanning jamiyat hayoti bilan uyg'unligi, boshqa sohalar unga ta'sir qilgani kabi u ham boshqa sohalarga ta'sir qilishi. Ma'f'kuraning fanga munosabati va uning modellari: qoralash, befarqlik, rahnamolik va ekspluatatsiya qilish. Fanni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar. Fanning differensiyasi va integratsiyasi. Yangi O'zbekistonda fanga munosabatning ijobiy o'zgarishi.

Ilmiylik mezonlari, uning tarixiyligi hamda tasnifi: estetik, uyushqoqlik, evristik, kogerentlik, pragmatiklik, progressizm, ishonchlilik, tanqidiylik, moddiy-amaliy faoliyat, polifundamentallik, mantiqiylik va informativlik kabi ilmiylik mezonlarining o'ziga xosligi.

Bilish me'yorlari va ideallari, dunyoning ilmiy manzarasi. Ilmiy bilim nisbatan analitik va sintetik yondashuv. Fandagi izchillik, ishonchlilik, asoslilik, isbotlilik. Ijtimoiy, texnikaviy, tabiiy, fundamental, amaliy, nazariy va eksperimental fanlarning o'zaro aloqasi va farqi. Sababiyat va qonuniylik.

### **Falsafiy bilimlar tizimi va uning asosiy yo'nalishlari**

Falsafiy bilimlar tizimi: birlik va yaxlitlik. Falsafiy bilimlarning asosiy yo'nalishlari va nazariy ildizlari. Falsafiy g'oyalar, nazariyalar, ularning shakllanishi va ahamiyati. Falsafaning tarixiy taqdiri va ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilish muammolari.

Falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'рни va roli. Falsafaning boshqa fanlarga ta'siri, uning dunyoqarashlik va metodologik vazifalari. Fan yutuqlarining falsafa tizimiga kiritilib borilishi. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish.

### **Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashni yangilantirishning metodologik masalalari**

Ijtimoiy taraqqiyot va falsafiy fikr, ularning o'zaro bog'liqligi. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti jarayonida falsafiy dunyoqarashning o'zgarishi dialektikasi, uning rivojlanishning tarixiy va ijtimoiy shakllari bilan bog'liqligi. Falsafiy fikrning ijtimoiy jarayonlardan ilgarilab ketish yoki orqada qolish muammolari. Mustaqillik va falsafiy tafakkurning o'zgarishi zaruriyati. Mustaqillik yangi falsafiy tafakkur shakllanishining asosi va sharti sifatida. Ma'furaviy bo'shliq va uni yangi ma'fura bilan to'ldirish zaruriyati. Falsafaning mustaqillikni mustahkamlashda va milliy g'oyani shakllantirishdagi roli.

Falsafiy dunyoqarashning tarbiya jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati. Jahon falsafasining asosiy yo'nalishlarini o'rganish zaruriyati. Falsafiy dunyoqarashning o'zgarib turishi va yoshlarni hozirgi zamon ruhida tarbiyalashning zarurligi.

### **Qadimgi davrda falsafiy ta'limotlar va ularni o'rganish metodologiyasi**

Jahon sivilizatsiyasining xilma-xilligi va yaxlitligi. Yevropotsentrizm va Osiyosentrizm: ahamiyati, g'oyaviy ildizlari va ma'furaviy maqsadlar falsafaning davriy va hududiy bo'linishining nisbiyligi. Eng qadimgi sodda falsafiy qarashlar. Qadimgi Markaziy Osiyodagi falsafiy fikr. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Afrosiyob Shosh madaniyati. «Avesto» va zardushtiylik g'oyalari. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi. Markaziy Osiyoda Buddizmning tarqalishi va rivoji. Moniy va Mazdak g'oyalari.

Sharq - jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri. Qadimgi Sharq falsafasi. Iudaizm falsafasi. Qadimgi Hindistonda diniy-falsafiy ta'limotlar paydo bo'lishi va rivoji: chorvaka, jaynizm, buddizm, induizm, qadimgi Xitoy falsafasi asosiy yo'nalishlari: konfutsiylik va daosizm. O'rta Osiyoda falsafiy fikrning shakllanishi. Qadimgi grek falsafasi shakllanishi va rivojlanishi, uning kosmotsentrik xarakteri. Aniq fikr asosiy tushunchalari: kosmos, tabiat, logos, eydos, ruh.

Sokratgacha bo'lgan falsafa. Birinchi faylasuflar. Milet maktabi va birlamchi boshlang'ich muammosi. Pifagor va ilk pifagorchilik. Geraklit: qarama-qarshiliklar va yaralish haqidagi ta'limot. Demokrit, uning atomistik ta'limoti. Atom va bo'shliq

muammosi. Determinizm masalasi. Qadimgi Gresiyadagi «mumtoz falsafa». Sokrat: hayoti va falsafasi, uning axloq falsafasi. Ezgulik va bilim. Platon «Foyalar dunyosi» va «narsalar dunyosi» haqida ta'limot. Bilish - «eslash»dir. Platon ruh va uning barhayotligi haqida. Platonning davlat haqidagi ta'limoti. Aristotel. Materiya va shakl haqida. Haqiqiy va imkondagi borliq haqidagi ta'limot. Aristotel «sabablar» turlari haqida. Aristotel ijtimoiy falsafasi.

### **Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar va temuriylar davri falsafiy qarashlari (VIII-XV asr)**

Ilk o'rta asrlar falsafasining ahamiyati va xususiyatlari. Markaziy Osiyoning arablar tomonidan egallanishi. O'rta Osiyoda islomning tarqalishi. Diniy bag'rikenglik va dunyoviy ilmlarning yaratilishi. Imom Al-Buxoriy va Imom At-Termiziy, «Al Jome as-Sahix». Abu Mansur Moturidiy, Burxonuddin al-Marg'inoniy qarashlari. «Al Hidoya». Sharq Renessansi. Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Al Farobiy, Al Beruniy, ibn Sino, tabiiy ilmiy va falsafiy qarashlar.

So'fiylikning diniy-falsafiy ta'limoti - tasavvuf va uning mohiyati. O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy hayotidagi tarixiy ahamiyati va roli. Amir Temur va uyg'onish davri. Amir Temurning tarixda tutgan o'rni. Uning O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi, iqtisodiy, ma'naviy madaniy hayoti rivojida roli. Ulug'bek - matematik va astronom olim. Ulug'bekning O'rta Osiyo fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissi, uning falsafiy qarashlari.

Alisher Navoiy - ulug' shoir, mutafakkir, faylasuf, Navoiy gumanizmi, uning inson kamoloti falsafiy konsepsiyasi. Zaxiriddin Muhammad Bobur - atoqli ma'rifatparvar va davlat arbobi, «Boburnoma» - XV asr qomusi, uning tarixiy va falsafiy ahamiyati.

### **Yevropa o'rta asrlar va Yangi davr falsafasi**

Yevropa falsafasi. Yevropada o'rta asrlar falsafasi (V-XIV asr), uning teotsentrik xarakteri. Avliyo Avgustin ta'limotida xudo g'oyasi. Foma Akvinskiy falsafasida tabiat va inson Tangri yaratgan hilqatlar sifatida.

Uyg'onish davri falsafasining antropotsentrik xarakteri va oliymaqom gumanizmi. N.Kuzanskiy va J.Bruno dialektikasi va natur falsafiy qarashlari. N.Kopernik ta'limotida dunyoni yangicha tushunish. Yangi davr (17-18 asr) falsafasi: jahon falsafasi taraqqiyotida yangi bosqich. Yangi falsafaning tabiatshunoslikdagi revolyusiya (I.Nyuton) bilan bog'liqligi.

XVIII asr Fransuz materializmi yangi davr falsafiy fikri taraqqiyotida oliy bosqich: Lametri, Golbax, Gelvesiy, Didro.

XVII asr ma'rifatparvarlik falsafasining asosiy xususiyatlari: V.Volter, J.J.Russo.

Nemis klassik falsafasi, uning 18-19 asrlar Yevropa falsafasi taraqqiyotidagi o'rni va roli. I.Kant, I.Fixte, F.Shelling, G.Gegel, L.Feyerbax.

## **XVI-XX asrlarda O'zbekistondagi ijtimoiy falsafiy qarashlar**

XVI-XX asr boshlarida O'zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar va ma'rifatparvarlik g'oyalari. Davrning xususiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit.

Mirzo Bedil va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Bedil dunyo, borliq va inson birligi to'g'risida. Boborahim Mashrab dunyoqarashi. Mashrab ijtimoiy tuzum va uning yangilanib borishi zarurligi haqida.

Ogahiy - davr salnomachisi, falsafiy gumanizm va estetik qarashlar.

Ahmad Donish va uning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari. Donish - davlat arbobi va islohotchi. Mustamlaka davrida O'zbekistondagi ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik g'oyalari, davrning xususiyatlari. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Xamzalarning ma'rifatparvarlik va hurlik g'oyalari.

O'zbekistonda jadidchilik harakati, uning falsafiy va g'oyaviy-siyosiy tamoyillari. Sovet davri va jadidchilikning fojiaiy qismati. Sovet davri totalitarizm zamonasi falsafasi, xulosalar va saboqlar. Ibrohim Mo'minov falsafiy maktabi. Mustaqillik davri falsafasi: muammolar va yechimlar.

## **Hozirgi zamon falsafasi**

Postklassik falsafa va XX asr falsafasi. XX asr falsafasida yangicha falsafiy tafakkur va dunyoning yangicha manzarasining yaratilishi.

XX asr falsafasida aql va fanga munosabat. Ssientizm va antissientizm.

Postindustrial va informatsion jamiyat g'oyalarining falsafiy asoslantirilishi. Texnokratik va antitexnokratik qarashlar: falsafiy mushohada.

Inson dunyo tizimida va inson dunyosi. Inson muammosining yangicha talqini. Odam va olam borlig'i. Ekzistensial falsafada insonning mohiyati, hayot va o'lim muammolari (K.Kerkegor, Yaspers, Berdyaev, Sartr).

XX asr diniy falsafasi. Neotomizm g'arb diniy falsafasi namunasi. Hozirgi islom ta'limotining diniy-falsafiy yo'nalishlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.

## **Ontologiya va uning ilmiy-metodologik muammolari: dunyo, borliq, materiya**

Ontologiya tushunchasi. Borliqning umumontologik talqinlari.

Antik davrda ontologiya asoslarining shakllanishi. Parmenid va uning mantiqiy makonni kashf etishi. Platon va Aristotelning ontologik konsepsiyalari. Neoplatonizm ontologiyasi. O'rta asrlarda va yangi davrda ontologiyaning rivojlanishi. Gegel dialektik ontologiyasi.

Borliq tushunchasi. Borliqning turlari masalasi. Borliqqa mavjudlik sifatida yondashish. "Postmodern" borlig'i.

Borliqning asosiy shakllari to'g'risidagi masala. Tabiat ob'ektlarining tuzilishi. Hayot nima? Biosfera. "Inson borlig'i". "Ijtimoiy borliq" muammosi.

Noosfera – borliq shakli. "Noosfera" atamasi. "Noosfera" tushunchasi. Noosfera g'oyasi.

Ontologiyada olamning birligi masalasi. Olamning bir butunligi. Olamning birligi asoslari.

Falsafada "substansiya" kategoriyasi. "Substansiya" tushunchasi. moddiy va ma'naviy substansiya tushunchasi. "Substrakt" tushunchasi.

### **Borliqning yashash shakllari**

Moddiy olam va materiya haqida falsafiy qarashlar.

"Materiya" tushunchasi va uning tarixiy talqinlari. Materiyaning zamonaviy talqinlari. Materiyaning tizimli tuzilishi.

"Harakat" tushunchasi. O'z-o'zidan harakat g'oyasi. Nisbiy tinchlik g'oyasi. Harakatning yo'qolmasligi va absolyutligi.

Harakatning asosiy shakllari. "Harakat shakli" tushunchasi. Harakat shakllarining o'zaro aloqadorligi. Harakatning geologik shakli.

Makon va zamon – borliqning asosiy shakllari. "Makon va zamon" tushunchalari. Makonning o'lchamlari. Makon va zamonning bepayonligi. Zamon o'lchovi. Makon va zamonning ob'ektiv mavjudligi. Makon va zamonning bog'liqligi. Makon va zamonning metro-topologik xossalari. "Vaqt" tushunchasi.

### **Tabiat va hayot**

Tabiat, hayot (tiriklik). Hozirgi falsafiy ta'limotlarda tabiat muammosi. Tabiat tushunchasi. Jonli va jonsiz tabiat, ularning sifat jihatidan farqi va bog'liqligi. Hayot muammosi, noyoblik va xilma-xillik. Tabiatni bilishda falsafaning o'rni. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro aloqasi. Tabiat va sun'iy dunyo, «birlamchi» va «ikkilamchi» tabiat. Tarixiy taraqqiyot davomida insonning tabiatga nisbatan munosabatining o'zgarib borishi. Biosfera, ekosfera, ergosfera, noosfera. Texnosfera va biosfera. Ekologiya muammosining vujudga kelishi va dolzarbligi. Ekologik tahdid va ekologiya muammosining umumbashariyligi. Ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati.

### **Ong**

Falsafada ong muammosi. Ong kategoriyasi inson ma'naviy faoliyati barcha shakllarini tahlil qilishda tayanch tushuncha sifatida. Ong voqelikni aks etdirish va inson faoliyatini yo'naltirish shakli sifatida. Ideallik tabiati. In'ikos tushunchasi. In'ikos shakllarining rivoji ongning genetik manbai sifatida. Psixik in'ikosning mohiyati. Ongning paydo bo'lishi, uning ijtimoiy tabiati va tarixiy mohiyati. Ong va til.

Ong va tafakkur. Inson faoliyatida onglilik va ongsizlikning o'zaro munosabati. Ong osti holatining tabiati. Ong va o'z-o'zini anglash. Ong va kibernetika. Milliy g'oya, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli va ahamiyati.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi.

### **Bilim muammosi. Epistemologiya. Haqiqat**

Bilish falsafiy tahlil predmeti sifatida (gnoseologiya). Bilish ob'ektiv reallikning in'ikosi, dunyoga bo'lgan tarixan rivojlanib boruvchi munosabat sifatida. Sharq mutafakkirlari qarashlarida bilish masalalari. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Ularning o'zaro munosabati. Bilish bosqichlari: hissiy va aqliy bilish. Sensualizm, empirizm va ratsionalizm. Hissiy bilish shakllari. Aqliy bilish voqelikni aks ettirishning sifat jihatidan yangi yuqori bosqichi sifatida. Aqliy bilishning asosiy shakllari. Ijod va intuitsiya. Bilishda «hissiylik» va «aqliylik»ning birligi. Bilishning ijtimoiy-tarixiy tabiati, uning amaliyot bilan aloqasi.

Haqiqat muammosi, uning ob'ektivligi. Absolyut va nisbiy haqiqat dialektikasi. Relyativizm. Haqiqat va yangilishish. Praktika (amaliyot) haqiqatning asosiy va umumiy mezon. Haqiqatning konkretligi. Ilmiy bilish metodologiyasi. Empirik tadqiqot metodlari: kuzatish, analiz va sintez, tajriba, induksiya, analogiya, tasniflash. Nazariy tadqiqot metodlari: deduksiya, aksiomatika, formallashtirish. Ilmiy nazariyani qurish metodlari: abstraktlikdan konkretlikka o'tib borish, tarixiylik va mantiqiylik, tizimiy tahlil. Fanda axloqiy tamoyillar va qadriyatlar.

### **Metod va metodologiya**

Insonning amaliy, bilish va qadriyat nuqtai nazaridan dunyoga munosabati. Falsafiy muammolarning tabiati va xususiyati. Ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, logika falsafaning asosiy qismlari sifatida.

Falsafa: nazariya va metod. Falsafiy mushohadaning tarixiy shakllari. Materializm va idealizm. Ratsionalizm va irratsionalizm. Mushohada va tajriba. Falsafa metodologiya sifatida, falsafaning metodologik tamoyillari: ratsionalizm, empirizm, krititsizm.

Dialektik metod va uning muqobillari. Dialektikaning tarixiy shakllari.

Determinizm. Dialektika kategoriyalari. Sabab va oqibat. Zaruriyat, tasodif, ehtimollik. Qonun tushunchasi, qonun zaruriyatning ifodasi sifatida. Determinizm va erkinlik muammosi. Falsafada germeneytik metod.

### **Falsafiy qonunlar va kategoriyalar**

#### *Dialektikaning asosiy qonunlari*

Rivojlanish jarayonida takror tamoyili, qonun va qonuniyat tushunchalari, ularning ob'ektivligi. Falsafiy qonunlar, ularning o'zaro bog'liqligi. Dialektika ob'ektiv reallikning bo'lishi, rivojlanishi va umumiy bog'liqligi ifodasi sifatida, uning ziddiyatli xarakteri. Birlik, farq, qarama-qarshilik, ziddiyat tushunchalari.

Jamiyat taraqqiyotining mustaqil va ketma-ketlik xarakteri. Qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni.

Olam, dunyo miqdor va sifat ifodasi sifatida. Miqdor va sifatning o'zaro o'tishi qonuni tushunchasi. Me'yor, me'yorning saqlanish qonuni. Me'yorning buzilishi yangi sifatga o'tish shartidir. Sifat taraqqiyotdagi tub o'zgarish ifodasi sifatida, uning O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari.

Inkorki inkor qonuni, inkorki inkor dialektikasi. Irsiylik va davomlilik eskining inkor etilishi va yangining barpo bo'lishi sifatida. Inkorda yemirilish va yaralish dialektikasi. Yangida eskining elementlari saqlanishi va yo'qolishi muammosi. Mustaqillikni mustahkamlash va yangi jamiyatni barpo qilishda inkorki inkorning namoyon bo'lish xususiyatlari. Milliy g'oyaning shakllanishi va yoshlar tarbiyasida dialektik inkorning roli.

### *Asosiy falsafiy kategoriyalar*

Falsafiy kategoriyalar real borliqning eng umumiy muhim qonuniy aloqadorlik va munosabatlarini aks etdiruvchi keng tushunchalar sifatida.

Butun va qism, struktura va element olamning paydo bo'lishi ifoda shakllari sifatida. Umumiylik, xususiylik va alohidalik kategoriyalari.

Mohiyat va hodisa kategoriyalari. Ularning tabiat va jamiyatda namoyon bo'lishi. Mazmun va shakl kategoriyalarining ob'ektiv reallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.

Mustaqil O'zbekistonda islohotlarning amalga oshirilish jarayonida mazmun va shakl birligi.

Sabab va oqibat kategoriyalari, ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi. Zaruriyat va tasodif kategoriyalari, ularning o'zaro aloqasi.

Imkoniyat va voqelik kategoriyalari, mohiyati va ahamiyati.

### **Ijtimoiy bilish**

Ijtimoiy bilish.

"Ijtimoiy bilish", "Gumanitar bilish", "Ijtimoiy-gumanitar bilish" tushunchalari. Gumanitarizm. Ijtimoiy bilish metodologiyasi va tarix falsafasi. Ijtimoiy bilish metodlari. Ijtimoiy bilish predmeti. Ijtimoiy-gumanitar bilim yo'nalishi. Ijtimoiy bilishda tushunish. Ijtimoiy bilishda ob'ekt va sub'ekt dialektikasi. Ijtimoiy bilish va gumanitar fanlarda semiotika muammolari. Ijtimoiy bilishda dialog. Ijtimoiy bilishda falsafa va uning metodlari. Ijtimoiy bilishda empirik va nazariy komponentlar.

### **Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda inson omili, erkinligi va manfaatlarning ustuvorligi**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadi, strategiyasida o'zgarishlar va ularning mohiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda inson erkinligi va manfaatlari ustuvorligi.

“Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun” g‘oyasining maqsadi. Jamiyat taraqqiyoti omillariga yangicha qarash, uning nazariy-ilmiy asoslari.

Prezident Sh. Mirziyoev faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillariga yangi konseptual qarashlarning asoslanishi.

### **O‘zbekistonning jahon ijtimoiy-iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va uning istiqbollari**

Integratsiya tushunchasining mantiqiy mazmuni. Integratsiya jarayonini harakatlantiruvchi motivlar (ehtiyotlar, manfaatlar) va mexanizmlar (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy). Integratsiyalashuv jarayonida ob’ekt va sub’ekt munosabatlari. Integratsiya jarayonining tarixiy-retrospektiv genezisi, rivojlanish bosqichlari va moddiy-texnik asoslari. Integratsiya jarayonida adaptatsion muhitning ahamiyati.

### **Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va tinchlikni ta’minlashning g‘oyaviy-mafkuraviy konseptual asoslari.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqining mohiyati. Shavkat Mirziyoevning milliy manfaatlarga asoslangan tashqi va ichki siyosatida mamlakat mustaqilligini asrash va xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasining mohiyati. Mamlakatimizda davlat tizimi hamda milliy xavfsizlik sohasini isloh qilishning nazariy-metodologik asoslari. O‘zbekistonda demokratik yangilanish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish – ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va xavfsizlik siyosatida yangi davr.

### **Global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va milliy g‘oyaga ehtiyoj istiqbollari**

Hozirgi davr global muammolarni turkumlashtirish, uning asosiy yo‘nalishlarini milliy g‘oya kontekstida tahlil qilish zaruriyati hamda aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish masalalari. Global inqirozlar mohiyatini, uning insoniyatga, millatga, xalqlarga va mamlakatlarga tahdidini anglab yetishda milliy g‘oyaning o‘rni.

### **Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi**

Prezident Shavkat Mirziyoevning «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» nomli kitobining mazmun-mohiyati. Yangi O‘zbekiston tushunchasining insonlar ongidagi ini’kosi. Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari, Yangi O‘zbekistonning g‘oyaviy-ma’naviy asosi. «Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi», «Xalqparvar davlat», «Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish», «Adolatli ijtimoiy siyosat», «Ma’naviy taraqqiyot», «Xavfsizlik va tashqi siyosat», «O‘zbekiston va umumbashariy muammolar».

### **O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosati**

Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi Toshkent konferensiyasi deklaratsiyasining mohiyati (2018 yil 26-27 mart), O‘zbekistonning mintaqadagi manfaatlari, O‘zbekistonning Afg‘oniston bo‘yicha tutgan pozitsiyasi. “Tolibon” harakati va uning siyosiy, iqtisodiy maqsadlari, Afg‘oniston va Markaziy Osiyo davlatlarining munosabatlari.

### **«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi: asosiy g‘oyalar**

2023 yil 11 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-son Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

- barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta‘minlanadi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi**

Dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli. Siyosiy qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayshi, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmishi, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib borishi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini olib borilishi.

Global va mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanishda Afg‘oniston omili.

Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga bo‘lgan sayi harakatlar.

### **Mamlakatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun‘iy intellektdan foydalanishda tengsizlikning oldini olish masalalari.**

Sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalarida sun'iy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg'araz almashishga qaratilgan Xalqaro hamkorlik mexanizmi yaratish.

Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do'stlik, o'zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifa sifatida.

Bu borada "Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati"ni ta'sis etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surilishi. Biz jamiyatimizdagi bag'rikenglik siyosatini izchil amalga oshirilishi.

Islom ma'rifati g'oyalarini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish bo'yicha sa'y-harakatlarimizni faol davom ettirilishi va Islom sivilizatsiyasi markazini ochilishi. Buyuk ajdodlarimiz – mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma'naviy va ilmiy merosining o'rganilishining ahamiyati.

### **O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorligi**

O'zbekiston tomonidan Turkiy davlatlar tashkilotining o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ta'kidlanishi. Oliy darajadagi siyosiy muloqot kengayib, o'zaro ishonch mustahkamlanib borayotgani, qo'shma loyihalar va gumanitar dasturlar faol amalga oshirishi.

Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi bitimni kelishib, qabul qilishinishining ahamiyati.

Ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha alohida "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish taklif qilinishi.

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar:

1. Shermuxamedova N. Falsafa. Darslik. T.: "Idris Abdurauf Nashr", 2021. 664 .
2. Falsafa. O'quv qollanma.// Sh.Madaeva va boshqalar/ – T.: MUMTOZ SO'Z, 2019.-608 b.
3. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.- T.: Axborot texnologiyalari. 2014, 450 b
4. Saifnazarov I. Muxtarov A. Boboev A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot", 2014.-136 b.
5. Saifnazarov I., Nikitchenko G.V., Qosimov B.U. Ilmiy ijod metodologiyasi. O'quv qo'llanma.-T.: "Yangi asr avlodi", 2004.-200 b.
6. Saifnazarov I., Qosimov B.U., Muxtarov A., Nikitchenko G.V. Fanning falsafiy masalalari.-T.: "Fan va texnologiya", 2004.-240 b.
7. Saifnazarov I. Ustozim – hayotim chirog'i. TDIU, 2017. 32b.
8. Iqtisodchi olimlar. (Tuzuvchilar: X.Abulqosimov, T.Jo'raev).T.:2016.-336 b
9. Saifnazarov I. Mening hayot falsafam. O'quv-uslubiy qo'llanma. TDIU, 2018.-126 b.
10. Saifnazarov I. Mahallamning olim va ziyoli kishilari. O'quv-uslubiy tavsiyalar. TDIU, 2019.-18 b.
11. Novikov A. Metodologiya nauchnogo issledovaniya. - M.: 2012
12. Zavyalova M.P. Методы наuchnogo issledovaniya: uchebnoe posobie. – Tomsk: Izd-vo TPU, 2007. – 160 s.
13. Saifnazarov I., Kасымов B., Muxtarov A. Oсновы философии. -T.: Mehnat, 2004.
14. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi.1,2 kitob. T.: "Ma'naviyat nashriyoti».2019 - 920 b..
15. Aflotun. Qonunlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2008. -452 b.
17. Nazarov Q. Falsafa asoslari. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati".2018 yil, 793 b.
18. Ma'naviyat (asosiy tushunchalar izohli lug'ati). T.: "G'afur G'ulom". 2013 yil, 448 b.
19. Yo'ldoshev S. Jahon falsafasi. T.: 2004 yil.
20. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. T.: Fan, 2009 yil.
21. Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., 1990.
22. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. –T.: Sharq, 2002.
23. Shaxs va jamiyat. Qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 2005.
24. I. Saifnazarov, F. Saifnazarova. Mafkuraviy xurujlar nima? Risola. T.: "Ma'naviyat", 2015. 32 b.
25. I. Saifnazarov, F. Saifnazarova. Yoshlar va oila vatan tayanchi. T.:Ta'lim", 2018.- 138 b.
26. A. Muxtarov. Milliy g'oya va milliy manfaat, T.: "Fan texnologiyasi", 2014, 229 b.
27. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash san'ati. –T.: «Noshir», 2008. -256 b.

28. Nisshe. Zardo'sht tavallosi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007. -348 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T.: O'zbekiston, 1997. -416 b.
2. Saidov A.X. Immanuil Kantning falsafiy-huquqiy merosi va zamonaviy yurisprudensiya / A.X.Saidov; T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi. 2012. – 320 bet.
3. Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. –T.: UFMJ, 2004.
4. Sitseron. Notqlik san'ati haqida ikki risola. –T.: Yangi asr avlodi, 2007. - 444 b.

#### **Internet saytlari**

1. Prezident.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti  
Prezident matbuot xizmati
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. [www.uza.uz](http://www.uza.uz). 23.09.2025.
3. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorligi. [www.uza.uz](http://www.uza.uz). 23.09.2025.
4. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.mgm.uz](http://www.mgm.uz). - Fuqarolik jamiyatini shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti
7. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) - O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA)  
[www.nimfogo.uz](http://www.nimfogo.uz) Fuqarolik jamiyatini shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti
8. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
9. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
10. [www.nber.com](http://www.nber.com) – AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
11. [www.webofscience.com](http://www.webofscience.com) – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
12. [www.scopus.com](http://www.scopus.com) – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
13. [www.elibrary.ru](http://www.elibrary.ru) – Rossiya ilmiy maqolalari indeksi